

## AKROM MALIK " HALQA" ASARI ISLOM ETIQODI TALQINI

*O'zbekiston -Finlandiya  
Pedagogika fakulteti  
207- guruh talabasi  
Tovboyeva Gavhar*

*Ilmiy rahbar: Raximova G. O'zbekiston-Finlandiya  
Pedagogika instituti dotsenti*

**Annotasiya:** *Ushbu maqola turli millat vakillari bo'lmish musulmonlar hayotidagi yuz yillik voqealar tasviri tushirilgan "Halqa " qissasini kitobxonlarga qisman tanishtirish va tavsiya qilish uchun yozilgan. Unda mo'minlar hayoti va ularning Allohga bo'lgan muhabbati tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar :** *Alloh, iymon, Islom, Qur'on, " Urvatul vusqo", "Sharli Ebdo", Muhammad (s.a.v), Shahodat kalimasi, etiqod*

Alloh — islom dinida butun mavjudotni yaratgan oliy ilohiy kuch; xudoning ismi. Odatda Allohga Taolo (ulug', oliy), Taboraka va taolo, Jalla jalalahu, azza va jalla, karim, buzrug, Parvardigori olam kabi sifatlar qo'shib aytiladi. Islom diniga binoan Alloh — yakkayu-yagona xudo, olamning yaratuvchisi va qiyomat kunining egasi. Har bir musulmon inson borki Allohni jonidan ortiq ko'radi, sevadi. Allohni sevish nima? Fikrimcha Allohni sevish har bir nafasi uchun shukrona ayta olishdir. Nimaiki bo'lmasin Alloh eng to'g'risini berishiga, hech qachon yolg'iz qoldirmasligiga iymon keltirishdir. Allohni sevish son-sanoqsiz yo'llardan faqat bittasinigina tanlab yashash emas, balki o'sha son-sanoqsiz yo'llarning hammasi jam etib Allohning rahmatiga tomon harakatlanmoqdir. Alloh o'z bandalarini sevish barobarida doimo sinaydi ham. Sabr etib Allohga bo'lgan ishonchini, iymonini but qilgan insonlargina baxtli bo'la oladilar. Baxt so'zi Qur'onning birgina joyiga kelgan: " Baxtiyorlar jannatdadir. Unda mangu qolguvchidir" . Shunday ekan o'tkinchi dunyoda mol dunyo to'plashga hom sut emgan bandalar buncha qiziqamiz. Axir baxtli bo'laolmasligini bilsada noto'g'ri yo'ldan yurib baxt izlaydigan insonni ongli mavjudot, Alloh yaratgan eng buyuk mo'jiza deyish mumkinmi!? Borliq shu qadar kengki, biz va bizni o'rab turgan olam undagi mittigina zarracha xalos. Mana shu zarraning bir qismi bo'lishimizga qaramasdan go'yo butun jahon egasidek o'lim haqligini rad etgan holda dunyoga ustun bo'ladigandek bamaylixotir yashayabmiz.

Bizga to'g'ri yo'lini kim ko'rsatadi, Allohni kim tanitadi? Albatta bu uchun eng avvalo o'zimiz harakat qilmog'imiz lozim. Mana shu yo'lga kirgan, Allohga ishongan, Allohni suygan har inson uchun, yaxshi bir kitobxon uchun ajoyib asar yosh , ko'pchilik uchun notanish bo'lgan yozuvchi Akrom Malik qalamiga mansub bo'lgan "Halqa" qissasini tavsiya qilaman. Akrom Malik 1991 yilda Toshkent viloyati Piskent tumanida tug'ilgan. Toshkent davlat milliy universiteti magistri, Alisher Navoiy ijod bilimdoni, "Halqa", "Jangchi" va yana

bir necha kitoblar muallifi. "Halqa" asari bir-biri bilan g'oya jihatidagina bo'g'langan, taqdir charxpalagida bir joyga jamlangan qahramonlar hayoti haqida hikoya qiluvchi o'ttiz ikki bobdan iborat. Kitob hali chop etilmasdan turib yuz minglab muxlislar qalbini zabt etgan. Mashhur suxandon Abdulkarim Mirzayev tomonidan o'qib eshittirilgan. Shu sababli rasman nashrdan chiqmasdan turib qo'lma-qo'l bo'ladi. Asarda O'zbek adabiyotida nisbatan yangi bo'lgan mavzularga murojaat qilingan. Mustaqillik davri adabiy-badiiy tafakkuridagi yangilanishni ushbu asar misolida ko'rish mumkin.

"Halqa" qissasidagi voqealar oxirgi yuz yillikda bo'lib o'tadi. Asar Hind ummonidan suzib Saudiya sohillariga borayotgan "Urvatul vusqo" kemasida ming nafar yo'lovchilarni BCC kanalining "Maxsus loyihalari" bo'limi jurnalistlari Jozef va Anna tomonidan "Islomiy ruhiyat" loyihasi uchun suhbatga chorlashi bilan boshlanadi. Asar boshidagi kema rahbari Ma'sud Hasanning ushbu so'zlari e'tiborga loyiq: " Islomiy ruhiyatni anglay olsangiz, bu dinni qabul qilasiz. Chunki o'zini bilgan odam uchun boshqa yo'l yo'q ". Garchi jurnalistlar bu gapga o'sha vaqtda e'tibor bermagan bo'lsa-da, asar yakunida bu so'zlarning bejizga emasligi anglashiladi. Yo'lovchilar ochiq chehra bilan yaxshi niyatda o'z taqdirlarini so'zlab berishadi. Musulmonlarning qanchalik diniga sodiqligini, qancha chidab bo'lmas qiyinchiliklarni boshidan o'tkazsa ham o'z dinidan kechmaganligi kitobxon yuragida iz qoldiradi.

Asarda erkaklar va ayollar aytib bergan hikoyalar qismlarga ajratilgan holda aralastirib berilgan. Bu o'quvchida kuchli qiziqish uyg'otadi va asarning qiymatini oshiradi. "Qahramonlar qismati bizni goh Hind ummoni va Hind o'lkasiga, G'arb yurtlariga, Pokiston, qadim Turkiston zamini, Bolqon yarimoroli, uyg'ur diyori , AQSh, Turkiya va Shom o'lkalariga yetaklaydi. Bu esa bizga qahramonlar hayotini taqqoslash imkonini beradi. Muhitni solishtiramiz, insonlarni farqlaymiz. Eng muhimi har qanday davrda ham adolatsizlik mavjud bo'lganligi va hozir ham borligini his qilgan holda yolg'iz madadkor Alloh ekanligiga iymon keltiramiz.

Asarda Abdulloh ismli yigitni hayoti haqida gap ketar ekan, kitobxon kitobdan boshini ko'tarolmay qoladi. Kitobga shunaqangi bog'lanadiki voqealar aynan o'zi bilan yuz berayotganday tuyiladi go'yo. Iymon va kufr, mo'min va shayton orasidagi kurash, zolimning halokati, mazlumning saodati haqida hikoya qiladi. Hayotidagi turli qiyinchiliklarga bardosh bilan sabr etarkan Abdulloh Yorqin faqat shu so'zlarni takrorlaydi: " Allohim gunohlarimizni kechir! Nuqsonlarimizni avf qil. Agar Sen bizni xayrga yo'llamasang, imkonimiz yo'q. Bizni xayrga boshla, g'azabingdan, o'zing rozi bo'lmagan ishlardan omon ayla! " Bu so'zlarning o'zi ham uni Allohni butun vujudi bilan sevuvchi chin musulmon inson ekanligini anglatadi. Abdulloh Yorqinning hikoyasi har bir kitob ixlosmandini o'z iymonni haqida o'ylashga majbur qiladi. Unda iymonli insonning hayot mashaqqatlarini yengib g'olib bo'lishi, matonatning yuksak mukofoti haqida so'z boradi.

Yo'lovchilar orasida hikoyasi bilan qalblarni larzaga solgan yana bir inson Anjelina. Anjelina Fransiyaning mashhur jurnali "Sharli Ebdo" ning muxbiri edi. U maqola yozish uchun sayohat qiladi va musulmonlar hayoti bilan tanishadi. Beixtiyor ularga mehr qo'yadi.

O'sha vaqtlarda Fransiyada butun Islom olamini larzaga keltirgan bir voqea sodir bo'ldi. "Sharli Ebdo" jurnali Muhammad (s.a.v)ni mazax qilib paydar-pay surat chizib, e'lon qiladi. Anjelina qalbida turli shubxalar paydo bo'ldi. U Islom dini haqida izlana boshlaydi. Muhammad (s.a.v) haqida ingliz tilidagi ma'lumotlar juda kam va salbiy bo'lganligi tufayli uni qoniqtirmaydi. So'ng Anjelina arab tilini o'rganadi va Muhammad (s.a.v)ga yaqinlashib kelgani sayin bu inson uchun jon berish eng ulkan sharaf, degan to'xtamga keladi. Yakunda Shahodat kalimasini aytib islomni qabul qiladi va ismini Mubinaga o'zgartiradi. Mubina xonim bu haqida shunday deydi: "Menga Islomga qarshi kurashmoqni taklif etishdi. Men islomga qarshi chiqmoq uchun Muhammad (s.a.v) hayotlarini o'rgandim va bu yagona haq dinni qabul qildim, Alhamdulillah".

Asarni shu joyigacha o'qib kelgan kitobxon musulmon bo'lib tug'ilish naqadar ulkan mujda ekanligi his etishi aniq. Kitobning bu qismidagi voqealar hayotiy ekanligining dalili "Sharli Ebdo" jurnali misolida ko'rishimiz mumkin. Qissada Abdulloh Yorqin va Anjelina xonimlardan tashqari ham boshqa ko'plab taqdir egalari qismlari haqida so'zlaydilar. Ularning har bir o'rnak olsa arzigulik hayot egalidir. Ba'zan adashishgan, haq yo'lidan yiroqlashishgan lekin ularning har biri eng to'g'ri yo'lni oxir oqibatda tanlashgan. Xususan Jozef va Anna ham islomni qabul qilib musulmon bo'lishadi. Asar yakunida kemadagi yo'lovchilarning hech biri o'limdan qo'rqmasligi mohirona tasvirlangan. Haq yo'lidagi inson uchun o'lim go'zal tushuncha ekanligi qissada chiroyli tarzda kitobxonga yetkazib berilgan. Kitobning yutuqlaridan biri shundaki uning oxiri mavhumlik bilan tugaydi. Tajribali va e'tiborli kitobxon o'zi eng go'zal yakuniy nuqtani qo'yadi.

Akrom Malik asari haqida shunday deydi: "Allohim! Xatolarga to'la ushbu qissani o'qiganlar qalbiga marg'ub qil! Kim mutolaa etsa, qasddan nuqson izlamasa, ixlosiga yarasha uni manfaatlantir. Bu manfaatni diniga, dunyosiga, oxiratiga xos ayla! ". Yozuvchining sodda, ravon so'zlar ila kamtarona fikrlar bilan asariga bergan tarifi taxsinga sazovordir. Bu kitobni birdaniga sidirg'a o'qishning imkonini yo'q. Negaki asarda mulohaza qilish kerak bo'lgan juda ko'p qismlar mavjud.

Xulosa qilib aytganda qissani qunt bilan o'qib, tahlil qilgan inson o'zi uchun ko'plab yaxshi ta'surotlar oladi. Ishonamanki yaxshi kitobxon bu asarni tugatgach Alloh tomon bir qadam qo'yadi va bu kitobni o'zining eng sevimli asarlari qatoriga qo'shadi. Kitob haqidagi fikrlarimga Akrom Malikning quyidagi so'zlari orqali yakun yasamoqchiman: "Allohim! O'zing barchamizga yordamchi bo'! Bizni o'z holimizga tashlab qo'yma! Bu dunyoda ham oxiratda ham yozgan va aytgan so'zlarimiz uchun bizni sharmanda qilma, balki izzat, yuksalish va qurbat maqomiga ko'tar! Omin, yo Robbul A'lamiyn!"

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akrom Malik. Halqa/adabiy-badiiy - Toshkent: "TAMADDUN", 2022.-523b.
2. Nurbek Alimov . " Jahon adabiyoti eng buyuk asarlari"

3. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. – Toshkent: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi, 2006.
4. Rahimova G. Ona tili va adabiyot (Bolalar adabiyoti). – Samarqand: SamDU nashri. 2022. – 303 b.
5. Saviya uz.com.
6. Ziyozuz.com.